

TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2019 yil yanvar-sentabr)*

2019 yil yanvar-sentabr oyida, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 405 804,2 ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 170,4 % ni tashkil etdi.


Shu jumladan, eksport hajmi 95 998,4 ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 167,7 % ni tashkil qildi. Import hajmi 309 805,8 ming AQSh dollarini o'sish sur'ati 171,3 % ni tashkil etdi.

Tashqi savdo saldosi minus 213 807,4 ming AQSh dollarini tashkil qildi.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh dollari)




Viloyatning tashqi savdo aylanmasi: Eksport va Import (ming AQSh dollari)



Tashqi savdo hozirgi kunda viloyatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy qismi bo`lib xizmat qilmoqda. Ushbu sohadagi izchil islohotlar bizga tovar va xizmatlar bozorlarini kengaytirishga imkon beradi. So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.


Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, 2019-yilning yanvar-sentabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 38 757,1 ming AQSH dollarga ko`proq eksport qilindi, tovar va xizmatlar importi hajmi esa o`tgan yilning mos davriga nisbatan 128 951,6 ming AQSH dollariga ko`proqdir.

Tashqi savdo aylanmasi tarkibi (MDH va boshqa xorijiy davlatlar hajmi va ulushi, ming AQSH dollarda)




Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 127,6 % ga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatdagi tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 195,0 % ga oshdi.

Eksport va Import tarkibi (MDH va boshqa xorijiy davlatlar ulushi, foizda)




2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda MDH davlatlarining Eksportdagi ulushi 61,0 % ni, Importdagi ulushi 16,8 % ni tashkil qildi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz eksportidagi ulushi 39,0 % ni, Importdagi ulushi 83,2 % ni tashkil yetdi.

Eksport va Import tarkibi (MDH va boshqa xorijiy davlatlar hajmi, ming AQSH dollarda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida Eksportda MDH davlatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 167,1 % ga, boshqa xorijiy davlatlar 168,7 % ga oshdi. Importda MDH davlatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,9 % ga, boshqa xorijiy davlatlar 199,5 % ga oshdi.


Eksportda MDH davlatlarning ulushi (foizda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimiz Eksportida MDH davlatlaridan eng yuqori Rossiya federatsiyasi hajmi 23 659,5 ming AQSH dollarini tashkil qilmoqda.

Shuningdek, eng kam eksport Moldova Respublikasiga 4,5 ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.

Importda MDH davlatlarning ulushi (foizda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimiz Importida MDH davlatlaridan eng yuqori Rossiya federatsiyasi hajmi 30 203,8 ming AQSH dollarini tashkil qilmoqda.

Shuningdek, eng kam import Qirg'iziston Respublikasi 161,9 ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.


Eksportda boshqa xorijiy davlatlarning ulushi (foizda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimiz Ekportida boshqa xorijiy davlatlaridan eng yuqori Turkiya Respublikasi hajmi 20 879,4 ming AQSH dollarini tashkil qilmoqda.

Shuningdek, eng kam eksport Slovakiya Respublikasiga bo'lib 0,3 ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.


Importda boshqa xorijiy davlatlarning ulushi (foizda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimiz Importida boshqa xorijiy davlatlaridan eng yuqori Xitoy Xalq Respublikasi hajmi 91 845,7 ming AQSH dollarini tashkil qilmoqda.

Shuningdek, eng kam import Ruminiya Respublikasi 0,2 ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.

TASHQI SAVDO AYLANMASI (ming AQSH dollarda)




2019 yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasi yuqori hajmi Jizzax shahri bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 130,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, tashqi savdo aylanmasi past bo'lgan Yangiobod tumani o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29,9 % ga kamayishi kuzatildi.


EKSPORT

(ming AQSH dollarda)



IMPORT


(ming AQSH dollarda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida Eksport hajmi kam bo'lgan Mirzacho'l tumani bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 13,7 martaga ko'p bo'lganligini ko'rish mumkin.


Bundan tashqari, Import past bo'lgan Yangiobod tumani o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,6 % ga kamayishi kuzatildi.

EKSPORT QILUVCHI KORXONALAR (Soni, birlikda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha Eksport qiluvchi korxonalar soni deyarli barcha tumanlarda o'tgan yilning shu davriga nisbatan ortmoqda, birgina Mirzacho'l tumanida kamayish kuzatilmoqda.

IMPORT QILUVCHI KORXONALAR (Soni, birlikda)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha Import qiluvchi korxonalar soni deyarli barcha tumanlarda o'tgan yilning shu davriga nisbatan ortganligini kuzatish mumkin.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda. Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi viloyatimiz mahsulotlarini tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi boshlig'i
Jahongir Yo'ldoshev**

tel: + 99871 230-83-45